

**KAMBAG‘ALLIK MUAMMOSINI HAL ETISHNING
HUDUDIY XUSUSIYATLARI VA IMKONIYATLARI**

*Namangan davlat texnika universiteti
Dadamirzayeva Zulayxo Ma'rufjon qizi
Email: zulayxodadamirzayeva@gmail.com*

Annotatsiya: Butun dunyoda kambag‘allik muammosi mavjud ekan, mamlakatimizda ham bu masalani hal etish dolzarb vazifalardan biriga aylandi. Kambag‘allik muammosi turli hududlarda turlicha namoyon bo‘ladi. Xususan, Namangan viloyati aholisining tabiiy o‘sishi tumanlarda joylashuvi, salohiyati, yoshi, jinsi bir-biridan farq qiladi, shularni hisobga olgan holda kambag‘allik muammosini hal etishning ayrim yo‘nalishlari bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: Kambag‘allik, tadbirkorlik, resurslar, salohiyat, hudud, ishsizlik, daromad, xarajat, aholi bandligi, kichik sanoat zonalar, “temir daftар”.

Dunyoning barcha davlatlarida bo‘lganidek, mamlakatimizda ham aholining muayyan qismi yetarli daromad manbaiga ega emas, bu odamlar kam ta’minlangan kambag‘allar qatlamini tashkil etadi.

Mamlakatimiz tarixida birinchi marta kambag‘allikning borligi va aholining muayyan bir qismini tashkil etilishi tan olindi. 2020 yil 24 yanvar kuni Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev Oliy Majlisga Murojaatnomasida bu masala to‘g‘risida alohida to‘xtalib o‘tdi va kambag‘allikni qisqartirish ustivor vazifa sifatida belgilandi.

2020 yil 27 fevral kuni Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev raisligida tadbirkorlikni rivojlantirish va kasbga tayyorlash orqali kambag‘allikni qisqartirishga qaratilgan chora-tadbirlar bo‘yicha videoselektorda ham bu masalaga alohida e’tibor qaratildi. “Kambag‘allikni kamaytirish oylik yoki nafaqa miqdorini ko‘paytirish, yoppasiga kredit berish degani emas. Buning uchun, eng avvalo, aholini kasbga o‘qitish, moliyaviy savodxonligini oshirish, odamlarda tadbirkorlik hissiyotini uyg‘otish, infratuzilmani yaxshilash, farzandlarini o‘qitish, sifatlari davolanish, manzilli nafaqa to‘lash tizimini joriy qilish kerak”-dedi Sh. Mirziyoyev.[1]

Yuqorida fikrlardan ko‘rinib turibdiki kambag‘allikni kamaytirish-bu alohida tadbirkorlik ruxini uyg‘otish, insonning ichki kuch quvvat va salohiyatini to‘la ro‘yobga chiqarish aholi bandligi darajasini oshirish, ishsizlikni pasaytirish maqsadida tadbirkorlikni rivojlantirish, sanoat, xizmat ko‘rsatish va qishloq xo‘jaligi bo‘yicha kompleks iqtisodiy va ijtimoiy siyosatni amalga oshirish orqali hal etilar ekan. Bunday sharoitda joylardagi ijtimoiy muammolarni hal etishga oid tadbirkorlik tashabbuslarini, ayniqsa yoshlar va ayollar tadbirkorligini qullab-quvvatlashga ustivor ahamiyat berish zarur.

Ushbu maqsadga erishish uchun aholi va tadbirkorlarga mikro moliya xizmatlari va moliyaviy resurslarga, davlat xaridlariga keng yo‘l ochib beriladi. Bunday chora tadbirlarni amalga oshirish orqali odamlarimizda tadbirkor bo‘lishga ishtiyoy va ishonch ortadi, ular ko‘proq daromad olishga intiladi.

Shu bilan birga hamma ham tadbirkor bo‘la olmaydi. Shu sababli bunday odamlar bilan tizimli ishlab, ularni kasbga qayta tayyorlash orqali munosib ish joyi bilan ta’minlash lozim.

Ma’lumotlarga ko‘ra bugungi kunda mamlakatimizda rasman ish bilan band bo‘lmagan 1 million 400 mingdan ortiq ayollar va yoshlar bor. Xotin-qizlar o‘rtasida ishsizlik darajasi 13 foiz, yoshlarda esa 15 foizni tashkil etmoqda. Ayrim viloyatlarda bu ko‘rsatkich yanada yuqoriyoqdir. Shularni hisobga olgan holda bandlikni ta’minlash uchun har bir hududda ishsiz aholini tadbirkorlikka o‘qitish kurslari tashkil etish bo‘yicha bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Kasbga o‘qish istagini bildirgan yolg‘iz ayollar va ko‘p farzandli ayollar, ishsizlar uchun kundalik hayotda ehtiyoji yuqori bo‘lgan hunarlar, xususan tikuvchilik, pazandachilik, sartaroshlik va boshqa yo‘nalishlarda kasbga o‘rgatish kurslarini tashkid etish maqsadida mahalla idoralari yoki hududdagi binolardan joy ajratilib, zarur jihozlar bilan ta’minlash ishlari davom ettirililyapti.

Oilaviy tadbirkorlik dasturlari doirasida mablag‘larning 70 foizi kambag‘al aholiga ish o‘rinlari yaratishni nazarda tutuvchi kichik va o‘rta biznes loyihamalariga yo‘naltirilishi belgilanmoqda. Shuningdek, kambag‘al kishini ishga olgan korxonalarga bank kreditlari bo‘yicha qo‘layliklar berish nazarda tutilmoqda.

Mamalakatimizda axolini ish bilan bandligini ta’minlash va shu asosida muntazam daromad olishlari maqsadida “ Xar bir oila –tadbirkor” , “ Yoshlar kelajagimiz”, “Obod qishloq”, “Obod mahalla” va tomorqani rivojlantirish kabi dasturlar qabul qilindi.Mazkur dasturlarni amalga oshirish uchun xususan oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish doirasida davlat byudjetidan qariyb 10 trillion so‘m imtiyozli kreditlar ajratildi. Bularni barchasi xalqimiz, ayniqsa yoshlarimizning tadbirkorlik tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash ,ularga o‘z biznesini yo‘lga qo‘yishi uchun berilayotgan imkoniyatlarni dalilidir.Mazkur imtiyozlar orqali yoshlarimizda tadbirkorlik tashabbuslarini rivojlantirilsa, ularga mablag‘lardan to‘g‘ri foydalanishni o‘rgatilsa, nafaqat iqtisodiy , balki ko‘plab ijtimoiy muammolarni xam xal etilgan bo‘ladi.

2020 yil 27 fevral kuni tadbirkorlikni rivojlantirish orqali kambag‘allikni qisqartirishga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida bo‘lib o‘tgan videoselektorda “Odamlarni mexnat qilib, boy bo‘lishi va yaxshi xayot kechirishi uchun barcha sharoitlarni yaratishimiz zarur” deb ta’kidladi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev.[2]

Yuqoridagi fikrlardan ko‘rinib turibdiki axolini bandligini ta’minlash va ishsizlikni kamaytirish bo‘yicha bugungi kun talablaridan kelib chiqib chora-

tadbirlarni belgilash kechiktirib bulmaydigan zaruriyatga aylanib bormoqda. Shu nuqtai nazardan xar bir tarmoq, soha, viloyat va tumanda o‘zidagi vaziyatlarni xisobga olgan xolda tashkil etilayotgan tadbirkorlik subyektlari va yangi ish o‘rinlari shu xududlar raxbarlari faoliyatini belgilovchi eng muxim mezon bulib bormoqda. Chunki, Prezidentimiz ta’biri bilan aytganda, bitta ishsiz odam o‘nta muammo degani. Bu muammolar ishsiz odamlarning o‘ziga, oilasi va maxallasiga, jamiyatga keltiradigan zararini xisobga olinsa, masalani naqadar jiddiy ekani yanada oydinlashadi.

Iqtisodiyotda asoratlari iz qoldirayotgan pandemiya yirik korxonalardan tortib kichik oilaviy tadbirkorlikkacha bulgan bosqichdagi barcha iqtisodiyo tarmoqlarga o‘z salbiy ta’sirini o‘tkazib kelayotgan bugungi kunda axolini bandligini ta’minalash va muntazam daromad olishlari orqali kambag‘allik muammosini xal etish mamlakatimiz miqyosida dolzarb vazifalardan biri ekan Namangan viloyatida ham bu muammoni xal etish bo‘yicha istiqbolli chora-tadbirlar belgilangan.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev 2019-2020 yillarda Namangan viloyatiga tashrifi chog‘ida ijtimoiy himoyaga muxtoj, ishsiz, kam ta’minalangan, kambag‘al oilalar bandligini ta’minalash orqali doimiy daromad manbaiga ega bo‘lishlari yuzasidan bir qator vazifalar belgilab bergen edi . Shulardan kelib chiqib viloyatda tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, tadbirkorlik sub’yektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoyalash, tadbirkorlarga zamonaviy mini texnologiyalar va xorijiy investisiyalarni jalb etish xamda ular tomonidan ishlab chiqarilgan tovar maxsulotlarini tashqi bozorlarga olib chiqish bo‘yicha bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan Namangan shahridagi “ Yuksalish” kichik sanoat zonasida amalga oshirilayotgan ishlar bunga yaqqol misol bo‘ladi. 117 hektar yer maydonini egallagan sanoat majmuasida bugungi kunda zarur bo‘lgan qurilish materiallari, mashinasozlik va metalga ishlov berish, elektrotexnika, to‘qimachilik va tikuvchilik kabi yo‘nalishlarda umumiyligi qiymati 1 trillion 208 milliard so‘mlik 95 ta loyixa amalga oshirilishi rejalashtirilgan. Xozirda 66,9 milliard so‘mlik 32 ta loyixa ishga tushirilgan bo‘lib, 311,1 milliard so‘mlik ishlab chiqarish quvvatiga erishiladi. Yuqoridagi loyixalar to‘liq ishga tushirilsa, 7 ming 300 ta ish o‘rinlari yaratilib, yiliga 7,8 million dollarlik maxsulotlarni eksport qilish imkoniyatga erishiladi.[3]

Bugungi kunda mazkur sanoat zonasida shifer, po‘latdan choksiz truba, metall maxsulotlarini qayta ishslash, suv nasoslari va elektr dvigatellar, momiq sochiq, yirik suv sig‘imlari hamda plastik quvurlar va qismlar, paypoq va trikotaj maxsulotlar ishlab chiqilmoqda

Shuningdek, “Yuksalish” kichik sanoat zonasida 2020-2021 yillar amalga oshiriladigan investisiya loyixalari amalga oshiriladigan ishlar, o‘zini o‘zi band qilish borasida bir qator chora-tadbirlar belgilangan . Yiliga 35 milliard so‘mlik maxsulot ishlab chiqarish quvvatiga ega bo‘lgan kafel-keramika maxsulotlari ishlab chiqaradigan “FLAT TILE” mas’uliyati cheklangan jamiyat qurilish loyihasi

bosqichma-bosqich bajarilib, 2021 yilning 2-choragida ishga tushiriladi va 410 ta ish o‘rinlari yaratiladi, bu esa yiliga 15,3 million dollarlik tovar maxsulotlarini eksport qilish imkoniyati yaratadi.

Kichik sanoat zonasini xududidagi erkaklar kostyumi, kurtka va palto ishlab chiqarishga ixtisoslashgan “Zamin kiyim sanoat” korxonasida amalga oshirilayotgan ishlar xam diqqatga sazovordir. Qiymati 24 milliard so‘mga teng loyixaga ko‘ra yiliga 10 milliard so‘mlik maxsulot ishlab chiqariladi va 300 ming dollar miqdoridagi tovar-maxsulotlar eksportga chiqariladi. Shuningdek 300 kishi ish bilan ta’milanadi.[3]

Namangan viloyatida yuqoridagi keng ko‘lamli ishlarni amalga oshirish, ya’ni ko‘plab yangi tadbirkorlik korxonalarini tashkil etish asosida axolini bandligini ta’minalash beziz emas. Chunki viloyatda 2019 yili 111 ming kishi yoki 9,5 foiz faol axoli ishsiz. Shuningdek 200 mingdan ziyod yoki 17 foiz mexnat qilish istagi bo‘lgan aholi xorijiy davlatlarga chiqib ketgan. Bugungi kunda esa COVID-19, ya’ni pandemiya tufayli ularni kupchiligi viloyatdagi yashash joylariga qaytib kelib ishsizlar soni oshishiga sabab bo‘lmoqda. Shu sababli ham viloyatga chetdan sarmoya olib kelish, yangi korxona va yangi ish o‘rinlarini yaratish bo‘yicha bir qator qo‘srimcha chora-tadbirlarni ko‘rish zarur. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta’kidlaganidek:“Bu kechagi Namangan emas. Juda qisqa fursat ichida 55 ming ish o‘rinlarini yaratish, 13 trillion so‘mlik loyixalar ishlab chiqish- ushbu xudud tarixida misli ko‘rilmagan o‘zgarishlar olib kelishi aniq”[3]

Yuqoridagi fikrlardan ko‘rinib turibdiki, bugungi iqtisodiy rivojlanish-investisiyalarni jalb qilish xisobiga yangi korxonalar va yangi ish o‘rinlari tashkil etish asosida axoli daromadlarini oshirishga erishish demakdir. Bularsiz pandemiya davrida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan vazifalarni, xususan kambag‘allik muammosini xal etishga va axoli turmush darajasini yaxshilashga erishib bo‘lmaydi. Shu nuqtai nazardan Namangan viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta’minalash uchun kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash zarur. Buning uchun davlatimiz tomonidan tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, infratuzilmasini rivojlantirish, qo‘srimcha ish o‘rinlarini yaratish uchun ajratilayotgan mablag‘larning har bir so‘mini o‘z o‘rniga ishlatilishini va har bir masalani xal etishda ilmiy va innovasion yondashuvlarni zaruriyatga aylantiradi.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, tadbirkorlikni rivojlantirish uchun ajratilayotgan pul mablag‘laridan maqsadli foydalnmaslik xolatlari ham uchrab turibdi.

Tadbirkorlik faoliyatini yo‘lga qo‘yaman, yangi ish o‘rinlari yarataman deb banklardan olingan kredit mablag‘larni ayrim tadbirkorlar o‘zlarini shaxsiy manfaatlariga, ya’ni uy qurish, mashina olish, to‘y-marosimlar o‘tkazish va boshqa maqsadlarga sarflab yuborish hollari ham uchrab turibdi. Natijada pul mablag‘larini noo‘rin sarflanishi bir qator muammolarni yuzaga keltirmoqda. Jumladan tadbirkorlikni rivojlantirishga, yangi ish o‘rinlari yaratishga to‘siq bo‘lishi bilan birga

banklardan olingan kredit mablag‘lar o‘z vaqtida qaytarilmaslikka sabab bo‘lmoqda. Ayrim tadbirkorlar olgan kreditni qaytarishdan bosh tortish xollari ham uchrab turibdi. Bunday “ soxta tadbirkor”larga qat’iy choralar ko‘rish vaqtি keldi deb o‘ylaymiz. Berilgan kredit mablag‘lari “ehson” emas, balki ulardan samarali foydalanish majburiyat ekanligini xis qilishlari lozim.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan xolda Namangan viloyati savdo-sanoat palatasi, viloyat xokimligi har bir tuman saloxiyatlaridan kelib chiqib kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarini tashkil etish bo‘yicha aniq chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqilib uni ijrosini ta’minalash lozim.Negaki yaratilayotgan tadbirkorlik korxonalari shu jumladan kichik sanoat zonalarini asosiy qismi Namangan shahrida joyldashgan.Vaxolanki viloyat axolisini salmoqli qismi tumanlarda yashaydi va ishsizlarni ko‘philigi ham ular xissasiga to‘g‘ri keladi

O‘rganishlar shuni ko‘rsatmoqdaki ayrim tumanlarda kichik sanoat zonalari mavjud bo‘lsada ba’zi tumanlarda bunday zonalar tashkil etilmagan. Chortoq,Namangan, Mingbuloq, Uychi, Yangiyo‘rg‘on va Pop tumanlarida kamida 1 tadan kichik sanoat zonasini tashkil etish zaruriyati bor. Bu nafaqat ijtimoiy- iqtisodiy vazifa, balki halqimizning dunyoqarashini o‘zgartirishga, mexnat orqali daromad topishga bo‘lgan qiziqishlarni va ertangi kunga bo‘lgan ishonchlarini oshirishga qaratilgan siyosiy masaladir.

Bugungi kunda mazkur vazifalarni xal etish maqsadida Namangan viloyatining bir qator tumanlarida, jumladan, Turaqo‘rg‘on, Uychi va Chortoq tumanlarini 2020-2022 yillarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va kambag‘allikni qisqartirish yuzasidan chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqildi. Dasturga ko‘ra tumanlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, muxandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini ham ijtimoiy iqtisodiy soxa obyektlarini yangidan qurish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash orqali tumanlar axolisiga qulay sharoitlar yaratish hamda kambag‘allikni qisqartirish vazifalari belgilangan. Shuningdek, sanoat, xizmat ko‘rsatish, qishloq xo‘jaligi soxalarini rivojlantirish bo‘yicha investisiya loyixalari ishlab chiqilgan.

Xususan Chortoq tumanida 2020-2022 yillarda qiymati 1,1 trillion so‘mga teng 70 ta sanoat, 73 ta xizmat ko‘rsatish va 86 ta qishloq xo‘jaligi soxasida hamda ular 5 mingga yaqin ish o‘rinlarining yaratishini nazarda tutuvchi investisiya loyixasi belgilangan. Mazkur loyixalarni amalga oshirilishi tumanda “ Temir daftар” ga kiritilgan 1 ming 668 ta kambag‘al va muxtoj oilalarning 2 ming 720 nafar a’zolarining bandligini va doimiy daromad olish imkoniyatini yaratiladi. Shuningdek, Uychi tumanida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishni yanada kengaytirish, eksportbop mahsulotlarni ishlab chiqarish, aholini doimiy mehnat bilan band qilish va tuman salohiyatini yuksaltirish maqsadida 2019 yil 30 mayda 2558-sonli tuman hokimining qaroriga asosan “Yuksalish” MFY hududida 34,4 hektar yer maydoni kichik sanoat zonasini tashkil etish uchun ajratildi. Bugungi kunda 20 ta loyiha tashabbuskorlari

tomonidan umumiy qiymati 205,7 milliard so‘m bank kredit, 700 ming dollar xorijiy kredit mablag‘lari hamda 3 million dollar xorijiy investisiya mablag‘lari hisobidan tashkil etish rejalashtirilgan. Mazkur korxonalarini ishga tushirish hisobiga 584 ta yangi ish o‘rinlari yaratish belgilangan.

Yuqoridagilargi fikrlarga asoslanib aytish mumkin, axolini ish bilan bandligini ta’minlash va shu asosida daromadlarini ko‘paytirish orqali ularning turmush farovonligini oshirishda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish muxim axamiyat kasb etadi. Bu esa tadbirkorlik faoliyatini yanada rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni yaratishni va mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanishni taqazo etadi.

Bizningcha, buning uchun quyidagilarga e’tibor qaratish maqsadga muvofiqdir.

1. Har bir xududdagi ishsizlarni aniqlash va ularni miqdorini turli omillar ta’sirida o‘zgarib turishini, ya’ni pandemiya tufayli korxonalar faoliyatini to‘xtatish yoki to‘la quvvat bilan ishlamasligi va xorijdan qaytib kelganchani ham e’tiborga olgan xolda o‘rganish

2. Davlat tomonidan joylarda axolini ish bilan bandligini ta’minlash maqsadida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish borasida belgilangan chora-tadbirlar dasturini qat’iy bajarilishini ta’minlash.

3. Viloyat tumanlarini saloxiyatini xisobga olgan xolda kichik sanoat zonalarini tashkil etish. Shuningdek chekka qishloq joylarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini yo‘lga qo‘yish va ularni muntazam ishslashlari uchun har tomonlama ko‘mak berish.

4. Qishloq joylarida tomorqa xo‘jaliklarini rivojlantirish. Tomorqalarda dexqonchilik, bog‘dorchilik, chorvachilik, parandachilik, asalarichilik, baliqchilik va xunarmandchilikni yo‘lga qo‘yish orqali axoli bandligini ta’minlash.

5. Tadbirkorlarga banklar tomonidan imtiyozli kreditlar berish va olingan kredit mablag‘laridan to‘g‘ri hamda maqsadli foydalanishni mutasaddilar tomonidan muntazam nazorat qilib borish. Shuningdek, olingan kreditlarni o‘z vaqtida qaytarilishi mexanizmini takomillashtirish.

6. Ijtimoiy ximoyaga muxtoj va kam ta’minlangan oilalarni qo‘llab-quvvatlash, axolini tadbirkorlikka keng jalb qilish borasidagi ishlarni samaradorligini oishrish uchun maxalla-tuman, shahar-viloyat-respublika darajasida tadbirkorlikni rivojlantirish va kambag‘allikni kamaytirishga mas’ul lavozimdagagi xodimlarni bajargan ishlari yuzasidan xisobotlarni yo‘lga qo‘yish va ularni faoliyatini baxolash.

7. Xududlarda tashkil etiladigang tadbirkorlik korxonalarini xususiyatiga qarab kasbga o‘qitish, qayta tayyorlash dasturlarini ishlab chiqish va o‘quv markazlarini tashkil etish va ularning faoliyatini mutasaddilar tomonidan nazorat qilib borish.

8. Pandemiya tufayli xorijdan qaytgan va hozirda ishlamayapgan malakali ishchilarni o‘z mutaxassisliklari bo‘yicha ish bilan band etish chora-tadbirlarini belgilash va ular mexnatidan unumli foydalanish va xokazolar.

Yuqoridagi xulosa va takliflarni xisobga olgan xolda mamlakatimizni jumladan Namangan viloyatini pandemiya sharoitida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish orqali kambag‘allikni qisqartirish borasida belgilangan chora-tadbirlar dasturidagi vazifalarni bajarilishiga erishiladi deb uylaymiz.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojatnomasi . ” Xalq so‘zi ” gazetasi, 2020-yil 25-yanvar.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev raisligida 27-fevral kuni tadbirkorlikni rivojlantirish orqali kambag‘allikni qisqartirishga qaratilgan chora-tadbirlar bo‘yicha videoselektor yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi. “Halq so‘zi” 2020 yil 28 fevral
3. “Namanganning mehnatkash, faol, ilmli halqi yaxshi yashashga munosib”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 27 iyundagi Namangan viloyati faollari bilan uchrashuvdagi ma’ruzasi. “Namangan Xaqiqati” gazetasi 2020 yil 1 iyul.
4. Namangan viloyati Statistika boshqarmasi ma’lumotlari.